

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TURSUNOV ZOHID XO‘JA ORIFOVICH

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT PENSIYA TA‘MINOTI
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2025-yil

UDK 364.3:364.65(575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
(Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавления автореферата диссертации доктора философии
(Doctor of Philosophy) по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy
(Doctor of Philosophy) on economical sciences**

Tursunov Zohidxo'ja Orifovich

O'zbekistonda davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish.....3

Турсунов Зоҳидхужа Орифович

Совершенствование системы государственного пенсионного обеспечения в
Узбекистане29

Tursunov Zohidhuja Orifovich

Improvement of the state pension system in Uzbekistan.....57

E'lon qilingan ishlar ro'yhati

Список опубликованных работ

List of published works.....62

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TURSUNOV ZOHID XO‘JA ORIFOVICH

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT PENSIYA TA‘MINOTI
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2025-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi
Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt4134-raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Muxamedov Farxod Tursunbayevich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy taqrizchilar: **Xaydarov Nizomiddin Xamrayevich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tursunov Jahongir Po'latovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
Toshkent shahri filiali**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.I.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «__»_____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A-uy. Tel: (99871) 234-53-34, faks: (99871) 234-46-26, e-mail: ilmiykengash@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axbort-resurs markazida tanishish mumkin (№__ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A-uy. Tel: (99871) 234-53-34, faks: (99871) 234-46-26, e-mail: kutubxona@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «_____» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «__» _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

T.Z. Teshabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

J.X. Ataniyazov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

I.N. Qo'ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish va pensiya yoshiga yetgan, boquvchisini yo'qotgan hamda nogironligi bo'lgan fuqarolarni pensiya bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish rivojlanayotgan va taraqqiy etgan mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT – United Nations) “Dunyo demografiyasining istiqbollari” nomli hisobotida qayd etilishicha, “65 va undan katta yoshdagi dunyo aholisining ulushi 2022-yildagi 10 foizdan 2050-yilda 16 foizgacha oshadi. 2050-yilga borib butun dunyo bo'ylab 65 va undan katta yoshdagilar soni 5 yoshgacha bo'lgan bolalar sonidan ikki baravar ko'p va 12 yoshgacha bo'lgan bolalar soniga deyarli teng bo'lishi prognoz qilinmoqda”¹. Bu shuni anglatadiki, 65 yosh va undan katta yoshdagilar soni, ya'ni pensionerlar soni boshqa yosh guruhlariga qaraganda tezroq o'sib bormoqda. Bunday tendensiya umr ko'rish davrining uzayib borishi natijasida davlat pensiya ta'minoti bilan bog'liq moliyaviy muammolarning ham dolzarb ahamiyat kasb etayotganligini ko'rsatadi. Shu sababdan ham jahonning aksariyat mamlakatlari ijtimoiy sug'urta va xususiy pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirishga, turli pensiya dasturlarini joriy qilishga, ko'p bosqichli pensiya tizimini yaratishga, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Jahon banki tomonidan 1994-yilda nashr etilgan “Global qarish inqirozidan ogohlantirish” nomli hisobot natijalariga ko'ra, aholining umr ko'rish davrining uzayib borishi va natijada pensiya to'lovlarini moliyalashtirishda kamomadning prognoz qilinishi bilan aksariyat mamlakatlar tomonidan ijtimoiy sug'urta tizimini rivojlantirish, ko'p bosqichli pensiya tizimini joriy etish, pensiya yoshini oshirish, kech pensiyaga chiqishni moddiy rag'batlantirish, pensiya jamg'armalarining investitsiya faoliyatini kuchaytirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash, turli pensiya dasturlarini joriy qilish, amaldagi pensiya modellarini isloh qilish yo'lida talaygina ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Biroq, aholini pensiya ta'minoti bilan qamrab olish darajasining sustligi va pensiya to'lovlarini moliyalashtirishning Davlat budjetiga tobora ko'proq bog'liq bo'lib qolayotganligi asosiy muammolardandir. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT – International Labour Organization)ning 2024–2026-yillarda butunjahon ijtimoiy himoya bo'yicha ma'ruzasida ta'kidlanishicha, “Yoshga doir pensiyalar dunyoda ijtimoiy himoyaning eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi. 2023-yilda dunyo miqyosida pensiya yoshidagilarning 79,6 foizi yoshga doir pensiya bilan ta'minlangan, biroq qonunda belgilangan pensiya yoshiga yetgan 165 millondan ziyod kishi bunday pensiyalar bilan ta'minlanmagan”². Bu esa global miqyosda pensiya ta'minotining qamrov darajasini oshirish, pensiya to'lovlarini moliyalashtirishning samarali mexanizmini yaratish, fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish borasida chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borilishi zarurligini taqozo etmoqda.

¹ World Population Prospects 2022. Summary of Results. Department of Economic and Social Affairs Population Division. United Nations New York, 2022. Старение | Организация Объединенных Наций.

² Международная организация труда. Доклад о социальной защите в мире в 2024–26 годах. Всеобщая социальная защита в интересах борьбы с изменением климата и справедливого перехода. Основные выводы и положения (Доклад масо и мот.pdf.).

O‘zbekiston Respublikasida davlat pensiya ta‘minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasini ishlab chiqish, norasmiy bandlikni qisqartirish va rasmiy bandlikni oshirish orqali pensiya ta‘minotining qamrovini oshirish, ko‘p bosqichli pensiya ta‘minoti tizimini rivojlantirish, pensiyalarni hisoblash va tayinlash tartibini takomillashtirish, pensiya yoshini umr davomiyligiga moslab qayta ko‘rib chiqish va pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada “Amaldagi davlat pensiya ta‘minoti tizimida mavjud muammolarni tahlil qilish hamda ilg‘or xorijiy tajriba asosida pensiya ta‘minoti tizimining barqarorligini ta‘minlash va ijtimoiy adolatni mustahkamlashga qaratilgan takliflarni tayyorlash”³ bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Shu bilan birga hanuzgacha munosib pensiya miqdorlariga erishilmaganligi, fuqarolarga, shu jumladan, chet elda mehnat qilayotgan fuqarolarga pensiya tayinlash, pensiya to‘lovlarini moliyalashtirish bilan bog‘liq muammolarning mavjudligi davlat pensiya ta‘minoti tizimining takomillashtirilishi zarurligini ko‘rsatmoqda.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-oktyabrdagi PQ–353-son “Aholiga pensiya tayinlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” va 2024-yil 12-avgustdagi PF–108-son “Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 23-sentyabrdagi 600-son “Davlat pensiya ta‘minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasini ishlab chiqish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” va 2024-yil 29-oktyabrdagi 714-son “Fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish sohasidagi qonunchilik hujjatlari takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Davlat pensiya ta‘minoti tizimini rivojlantirishning ilmiy hamda uslubiy asoslarini takomillashtirish bilan bog‘liq masalalar uzoq xorijlik iqtisodchi-olimlardan R.Jacobs, M.Goddard, G.Tetlow, G.Vobruba, J.Peng, L.Christensen, A.Moore, C.Campbell, S.Butler ilmiy ishlarida tadqiq qilingan⁴.

³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 23-sentyabrdagi 600-sonli “Davlat pensiya ta‘minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasini ishlab chiqish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 4-xatboshi.

⁴ Rowena Jacobs, Maria Goddard. Social Health Insurance Systems in European Countries The Role of the Insurer in the Health Care System: A Comparative Study of Four European Countries. – Heslington, York England: The Publications Office Centre for Health Economics. 2000. – 132 P.; Tetlow G. Essays on the economics of retirement and pensions. A dissertation submitted in partial fulfilment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy of University College London. – England: Department of Economics University College London. 2015. – 224 p.; Vobruba G. Der wirtschaftliche Wert der Sozialpolitik. – Berlin: Duncker u. Humblot, 1989. – 238 s.; Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. – USA.: Auerbach Publications, 2008. – 286 p.; Christensen L., Moore A. Pension Reform Handbook: A Starter Guide for Reformers. Copyright © 2014, Reason Foundation. All rights reserved. – 139 p.; Collin

Yaqin xorijlik olimlardan Afтахова А.В., Азарова Е.Г., Андрющенко Г.И., Бровчак С.В., Гусаков Д.Б., Куликова М.А., Косаренко Н.Н., Орлов С.Н., Шеметов А.П., Роик В.Д., Федотов А.И., Ижаева А.Р., Хабриева Т.Я., Воронин Ю.В., Емельянцев В.П., Григорьева Л.В. kabilarning ilmiy ishlarida ijtimoiy sugʻurta va pensiya taʼminoti tizimini rivojlantirishning ilmiy-nazariy, uslubiy va amaliy muammolari tahlil qilingan⁵.

Mahalliy iqtisodchi-olimlardan A.V.Vaxabov, N.M.Majidov, B.X.Umurzakov, R.T.Dalimov, T.S.Malikov, O.O.Olimjonov, N.X.Jumayev, Sh.Sh.Shohaʼzamiy, G.A.Kasimova, D.R.Rustamov, B.Sh.Xusanov, B.S.Mamatov, Z.E.Beknazarov, Sh.U.Rajabov, D.A.Sholdarov, Sh.K.Hamdamiy, M.A.Erxonova, B.O.Tursunov, S.S.Yodgorov, F.K.Saidmurodovlarning ilmiy tadqiqotlarida pensiya taʼminoti tizimini rivojlantirish va pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini taʼminlash bilan bogʻliq masalalar tadqiq qilingan⁶.

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarida pensiya taʼminoti tizimini takomillashtirish masalalari iqtisodiyotni raqamlashtirish va davlat

Campbell. Social Insurance in Figures 2018. Swedish Social Insurance Agency. – Stockholm, Sweden. 2018. – 70 p.; Stephen Butler. Roadmap to Retirement Security: How to Build and Conserve Retirement Wealth. – UK: iUniverse, 2014. – 112 p.

⁵ Афтахова А.В. Пенсионное обеспечение: учебное пособие для вузов. – М.: Юрайт, 2020. – 240 с.; Азарова Е.Г. и др. Социальное обеспечение: настоящее и будущее: Монография. – М.: ИЗСППР, 2017. – 284 с.; Андрющенко Г.И. Модернизация сферы социального страхования в Российской Федерации. Автор. дисс. на соис. уч. ст. д.э.н. – М.: РГСУ, 2011. – 53 с.; Бровчак С.В. Пенсионное обеспечение. Российский и зарубежный опыт. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 215 с.; Гусаков Д.Б. История пенсионного обеспечения и социального страхования в России. – СПб.: Санкт-Петербургский государственный институт психологии и социальной работы. 2010. – 260 с.; Куликова М.А. Современное состояние эффективности механизмов социально-страхового обеспечения качества жизни населения: Монография. – Тамбов: ТГТУ, 2009. – 104 с.; Косаренко Н.Н. Социальное страхование как фактор развития социальной защиты населения: Монография. – М.: LAP LAMBERT, 2016. – 140 с.; Орлов С.Н., Шеметов А.П. Пенсионное обеспечение в Российской Федерации: Монография. – Курган: Изд-во Курганского гос. ун-та, 2013. – 106 с.; Роик В.Д. Пенсионный возраст и модернизация пенсионных систем: отечественный и зарубежный опыт: монография. – М.: Юрайт, 2025. – 336 с.; Роик В.Д. Социальная политика: заработная плата и страхование рисков её утраты: Учебник. – М.: ЮРАЙТ, 2019. – 536 с.; Федотов А.И. История возникновения пенсионных систем в зарубежных странах // Труды ИСА РАН. – 2006. – № 23. – С. 308-316.; Ижаева А.Р. Концепция развития пенсионной системы Российской Федерации в посткризисный период: Автореф. дис. ... к.э.н. – М.: ФГБОУ ВПО, 2013. – С. 31.; Хабриева Т.Я., Воронин Ю.В., Емельянцев В.П. Пенсионные накопления в России: кризис ожидания или новые возможности: монография. – М.: ИНФРА-М, 2017. – 240 с.; Григорьева Л.В. Совершенствование системы пенсионной защиты населения в социально-ориентированной экономике. Монография. – М.: РУСАЙНС, 2024. – 220 с.

⁶ Vaxabov A.V., Majidov N.M. Jamgʻarib boriladigan pensiya jamgʻarmasining Oʻzbekistonda investisiya siyosatini amalga oshirishdagi roli: Monografiya. – T.: Universitet, 2017. – 128 b.; Umurzakov B.X. Совершенствование системы социальной защиты нетрудоспособных слоев населения в условиях формирования рыночной экономики: Автореф. дис. на соис. уч. степ. к.э.н.: 08.00.10. – Т., 1995. – 22 с.; Далимов Р.Т. Мировой опыт реформирования пенсионной системы и его использование в условиях переходной экономики: Автореф. дисс. на соис. уч. степ. к.э.н.: – Т.: НУУ, 2002. – 20 с.; Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya: Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2019. – 800 b.; Jumayev N.X. Ijtimoiy farovonlik – taraqqiyot koʻzgusi // Yangi Oʻzbekiston yoshlari. №2. 2024. – B. 17-23.; Shohaʼzamiy Sh.Sh. Pensiya taʼminoti tizimi investision modelining qiymatli antiinflasyon konsepsiyasi // Moliyachi maʼlumotnomasi. №9 (45). 2015. 34-38-b.; Kasimova G.A. Ijtimoiy sugʻurta: Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2019. – 568 b.; Rustamov D. Oʻzbekistonda pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini taʼminlash masalalari. Monografiya. – T.: Iqtisod-moliya, 2018. – 200 b.; Xusanov B.Sh. Проблемы регулирования финансового механизма социального обеспечения населения: Автореф. дисс. на соис. учен. степ. к.э.н.: – Т.: НУУ, 2011. – 25 с.; Mamatov B.S. Oʻzbekiston Respublikasida fuqarolar pensiya taʼminoti tizimini rivojlantirish yoʻnalishlari: Monografiya. – T.: Iqtisod-Moliya, 2022. –160 b.; Beknazarov Z.E. Oʻzbekistonda pensiya jamgʻarmasining moliyaviy barqarorligini oshirish masalalari: Iqt. fan. boʻy. fals. dokt (PhD) diss. avtoref. – T.: TMI, 2019. – 56 b.; Rajabov Sh.U. Nodavlat pensiya jamgʻarmalarini shakllantirish va investitsion faollikni oshirish. Iqt. fan. boʻy. fals. dokt. (PhD) diss. Avtoref. – T.: Iqtisod-moliya, 2018. – 66 b.; Sholdarov D.A. Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida pensiya taʼminotining moliyaviy barqarorligini taʼminlash: Iqt. fan. boʻy. fals. dokt (PhD) diss. avtoref. – T.: TMI, 2019. – 62 b. Hamdamov Sh.K. Fuqarolar yoshiga doir pensiya taʼminotining tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish. Iqt. fan. boʻy. fals. dokt. (PhD) diss. Avtoref. – T.: Iqtisod-moliya, 2020. – 64 b.; M.A.Эрхонова, Б.О.Турсунов, С.С.Ёдгоров, Ф.К.Саидмуродов. Совершенствование пенсионной системы в Узбекистане на основе рекомендаций Международного валютного фонда. Монография. – Т.: “Fan ziyosi”, 2023. – 102 с.

pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasini ishlab chiqish bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida bajarilganligi bilan yuqorida keltirilgan dissertatsiya ishlaridan farqlanadi va shu jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining ITM-3. "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo'nalishlari bilan bog'liq holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

pensiya ta'minoti tizimi xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarni tadqiq etish va uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

davlat pensiya ta'minoti tizimiga ta'sir etuvchi omillarni tavsiflash va tasniflash;

ilg'or xalqaro tajribalardan davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirishda foydalanish imkoniyatlarini aniqlash asosida takliflar ishlab chiqish;

davlat pensiya ta'minoti tizimining samaradorligini aniqlash va baholash;

fuqarolar pensiya ta'minotining moliyaviy manbalari va pensiya to'lovlarini moliyalashtirishga oid tendensiyalarni tahlil qilish;

pensiya tayinlashga oid normativ-huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirish yuzasidan amaliy takliflarni shakllantirish;

davlat pensiya ta'minoti tizimidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga yo'naltirilgan amaliy tasviyalar ishlab chiqish;

davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti davlat pensiya ta'minoti tizimining nazariy, amaliy hamda uslubiy asoslarini takomillashtirish jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada guruhlash, qiyosiy taqqoslash, induksiya, deduksiya, kuzatuv, nazariy va amaliy tahlil, iqtisodiy-matematik, korrelyatsiya usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari miqdorini o'n besh foizga oshirish asosida pensionerlarning turmush darajasini yanada yaxshilash, ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish va bu bilan bog'liq xarajatlarni Davlat budjeti hamda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplashning maqsadga muvofiq ekanligi asoslangan;

fuqarolarga yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiya xarajatlarni budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan, kompensatsiya va boshqa to'lovlar uchun xarajatlarni respublika budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirish taklif etilgan;

mehnat shartnomasi asosida chet elda ishlagan O'zbekiston fuqarolari tomonidan o'tgan davr uchun ijtimoiy soliqni quyidagi miqdorlarda, ya'ni 2019-yil 1-yanvarga qadar bo'lgan davr uchun har bir oyga bazaviy hisoblash miqdorida, 2019-yil 1-yanvardan 2019-yil 31-dekabrqa qadar bo'lgan davr uchun bir yilga bazaviy hisoblash miqdorining to'rt yarim baravari miqdorida va 2020-yil 1-yanvardan keyingi davr uchun yiliga bazaviy hisoblash miqdorida to'lashning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

fuqarolarga pensiya tayinlash shartlarini qayta ko'rib chiqish, pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va pensiyalarning o'rtacha oylik miqdorini Xalqaro Mehnat Tashkilotining "Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yorlari to'g'risida"gi 102-sonli Konvensiyasiga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasini ishlab chiqish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

pensiya ta'minoti tizimining o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan, pensiya tizimiga ta'sir etuvchi bevosita va bilvosita omillar tavsiflangan va tasniflangan;

fuqarolarga yoshga doir pensiyalarni pensiya yoshiga to'lishi munosabati bilan alohida murojaat talab etmagan holda proaktiv shaklda tayinlash orqali pensiyalarni tayinlash yuzasidan ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini yanada yaxshilash hamda ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish taklif etilgan;

iqtisodiy-matematik modelni qo'llash orqali davlat pensiya ta'minoti tizimidagi pensiya yoshi bilan bog'liq ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi va ularning ta'sir doirasi, shu jumladan, risk darajasi aniqlangan;

davlat pensiya ta'minoti tizimidagi dolzarb muammolar aniqlangan, ularni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar shakllantirilgan hamda ilg'or xorij tajribalari asosida davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborotlar bazasining rasmiy manbalardan, shuningdek, davlat pensiya ta'minoti tizimiga oid ma'lumotlarning hisobot manbalaridan olinganligi, xulosa va takliflarning amalda sinovdan o'tkazilganligi hamda olingan natijalarning O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflardan davlat pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish, uni ijtimoiy ta'minotning minimal xalqaro me'yorlariga muvofiqlashtirish hamda mamlakatimizda "Pensiya ishi" va "Ijtimoiy sug'urta" fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan rivojlantirishga hamda milliy pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan fuqarolar pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlar va Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasini ishlab chiqishda va oliy o'quv yurtlarida pensiya ta'minotiga oid

fanlarning o'quv dasturlarini mazmunan boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari miqdorini o'n besh foizga oshirish asosida pensionerlarning turmush darajasini yanada yaxshilash, ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish va bu bilan bog'liq xarajatlarni Davlat budjeti hamda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplashning maqsadga muvofiq ekanligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi PF-108-son "Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi qarori ishlab chiqilishida foydalanilgan (Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 6-dekabrda 32897-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarini to'lashga sarflangan xarajatlar 2024-yilda 10,5 trillion so'mga yoki 19,6 foizga oshib, 64,1 trillion so'mni tashkil etgan hamda ushbu mablag'lar pensionerlarning real daromadlarini oshirishga va ijtimoiy himoyalaniishini kuchaytirishga xizmat qilgan;

fuqarolarga yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiya xarajatlarini budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan, kompensatsiya va boshqa to'lovlar uchun xarajatlarni respublika budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirish haqidagi taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-oktyabrda 714-son "Fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish sohasidagi qonunchilik hujjatlari takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi qarori ishlab chiqilishida foydalanilgan (Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 6-dekabrda 32897-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida 2025-yildan 80423 nafar kompensatsiya oluvchilarning 193,5 mlrd. so'mlik mablag'larning manbalariga aniqlik kiritilgan. Shuningdek, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlarining o'rta va uzoq muddatli prognozlarini ishlab chiqishga imkon yaratgan;

mehnat shartnomasi asosida chet elda ishlagan O'zbekiston fuqarolari tomonidan o'tgan davr uchun ijtimoiy soliqni quyidagi miqdorlarda, ya'ni 2019-yil 1-yanvarga qadar bo'lgan davr uchun har bir oyga bazaviy hisoblash miqdorida, 2019-yil 1-yanvardan 2019-yil 31-dekabrda qadar bo'lgan davr uchun bir yilga bazaviy hisoblash miqdorining to'rt yarim baravari miqdorida va 2020-yil 1-yanvardan keyingi davr uchun yiliga bazaviy hisoblash miqdorida to'lashning maqsadga muvofiqligi haqidagi taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-oktyabrda 714-son "Fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish sohasidagi qonunchilik hujjatlari takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi qarori ishlab chiqilishida foydalanilgan (Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 6-dekabrda 32897-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga tatbiq

etilishi natijasida 250 nafardan ortiq ijtimoiy soliq (sug'urta badali, yagona ijtimoiy to'lov) to'langan mehnat shartnomasi asosida chet elda ishlagan O'zbekiston fuqarolariga pensiya tayinlashda ish stajini va ish haqini hisoblash uchun qabul qilingan;

fuqarolarga pensiya tayinlash shartlarini qayta ko'rib chiqish, pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va pensiyalarning o'rtacha oylik miqdorini Xalqaro Mehnat Tashkilotining "Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yorlari to'g'risida"gi 102-sonli Konvensiyasiga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasini ishlab chiqish haqidagi taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 23-sentyabrdagi 600-son "Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasini ishlab chiqish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ishlab chiqilishida foydalanilgan (Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 6-dekabrdagi 32897-son ma'lumotnomasi). Natijada, milliy pensiya ta'minoti tizimini "Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yorlari to'g'risida"gi 102-sonli Konvensiyada belgilangan pensiya ta'minotiga oid minimal me'yorlarga muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan va fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti tizimi samaradorligini oshirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar asosida pensiya tizimining barqarorligini ta'minlash va ijtimoiy adolatni mustahkamlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ilmiy ma'ruzalar sifatida bayon etilgan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot natijalari bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 8 ta maqola va 6 ta ma'ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya ishining hajmi 136 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida bajarilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi ochib berilgan, shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqotning aprobatsiyasi va uning natijalarini amaliyotga tatbiq etish to‘g‘risida, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Davlat pensiya ta‘minoti tizimining ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida pensiyalarning mazmun-mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari, turlari va aholini ijtimoiy himoya qilish tizimidagi roli ochib berilgan, pensiya tizimiga ta‘sir etuvchi omillar aniqlangan hamda pensiya ta‘minoti bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalardan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Pensiya atamasi lotincha “pensio” so‘zidan kelib chiqib, “to‘lov” ma‘nosini ifodalaydi. Ko‘plab ilmiy manbalarda eramizdan avvalgi I asrda qadimgi Rimda “pensiyalar Yuliy Sezar tomonidan harbiylar uchun o‘ylab topilganligi qayd etilgan”⁷. “VII asrda Xalifa Umar tomonidan pensiyalar davlat xazinasiga yig‘ilgan soliqlar (zakot, juzya) hisobidan muhtojlarga, shu jumladan, qariyalarga, yetimlarga, boquvchisiz qolganlarga va nogironlarga moddiy yordam shaklida berilgan”⁸.

Pensiyalar Fransiyada 1673-yilda, Rossiyada 1825–1885-yillarda, Yaponiyada Ikkinchi jahon urushi davrida, eng avvalo, harbiy xizmatchilarga to‘langan. Daniyada 1891-yilda, Yangi Zelandiyada 1989-yilda, Buyuk Britaniya va Avstraliyada 1908-yilda, Italiyada 1919-yilda, Kanadada 1927-yilda, AQShda 1935-yilda keksa fuqarolarni ijtimoiy va moddiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida pensiyalar joriy qilingan.

Pensiyalarning shakllanish tarixiga ko‘ra, ular avvalo harbiylarni (o‘sha davrdagi shart-sharoitlardan kelib chiqib), so‘ngra qariyalarni, nogironlarni, boquvchisiz qolganlarni ijtimoiy va moddiy qo‘llab-quvvatlash maqsadlarida to‘langan.

“Birinchi marta ijtimoiy sug‘urtaga asoslangan davlat pensiya ta‘minoti tizimi Germaniyada O.Bismark tomonidan 1889-yilda joriy qilingan”⁹. Ushbu pensiya modeli Bismark modeli (pay-as-you-go) deb nom olgan va avlodlar birdamligiga asoslangan “taqsimlanuvchi” pensiya tizimidan iboratdir. Buning asosiy xususiyati shundaki, ishlovchilar va ish beruvchilar Pensiya fondiga majburiy ijtimoiy sug‘urta badallarni to‘lab boradi, shakllangan mablag‘lar hisobidan pensionerlarga pensiyalar to‘lab beriladi va bu jarayon uzluksiz davom etadi. Bunda hech kim o‘zining kelajakdagi pensiyasi uchun ijtimoiy sug‘urta badali to‘lamaydi va pensiya fondiga

⁷ Мосейко В. Генезис пенсионных систем как проявление социальной функции государства. (<https://www.rusrand.ru/Doklad5/Moseiko.pdf>).

⁸ [https://ru.wikipedia.org/wiki/Пенсия_ma‘lumotlari](https://ru.wikipedia.org/wiki/Пенсия_ma%27lumotlari).

⁹ Федотов А. История возникновения пенсионных систем в зарубежных странах // Труды ИСА РАН. – 2006. – № 23. – С. 308-316.

majburiy ajratmalar o'zidan oldin pensiyaga chiqqan fuqaroning pensiya manbai bo'lib qolaveradi.

Amerikalik iqtisodchi-olim J.Pengning davlat va mahalliy pensiya fondlarini boshqarishga bag'ishlangan ilmiy ishlarida "pensiylar pensionerlarning davriy daromadlari, kechiktirilgan to'lovlar, fuqaroning mehnatga layoqatsizligi tufayli yo'qotilgan ish haqi uchun kompensatsiya ekanligi qayd etilgan hamda ijtimoiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan talqin qilingan"¹⁰. Olimning pensiylar haqiqatdan ham pensionerlarning davriy daromadlari, fuqaroning mehnatga layoqatsizligi tufayli yo'qotilgan ish haqi uchun kompensatsiya va kechiktirilgan to'lovlar haqidagi ilmiy qarashlariga to'liq qo'shilmiz, ammo ijtimoiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan talqin qilinishi biroz munozarali. Sababi, ijtimoiy xavfsizlik keng tushuncha bo'lib, shaxs, aholi ijtimoiy guruhlari va jamoalarining hayotiy muhim manfaatlari, huquqlari va erkinliklarining buzilishi tahdidlaridan himoyalanganlik holatini ifoda etadi.

Mashhur rus olimi В.Ройкning fikricha, "pensiylar fuqarolarga keksalikda, nogironlikda, boquvchisini yo'qotganida moddiy jihatdan ta'minlanmaslik riskidan ijtimoiy himoya qilishning muhim shakli bo'lib, yo'qotilgan ish haqi (daromadi)ning bir qismining qoplanishiga mo'ljallangan oylik pulli to'lovlardir"¹¹.

Mahalliy iqtisodchi-olimlardan A.Vaxabov, T.Malikovning "Moliya" darsligida "pensiya – qarilik, nogironlik, xizmat qilgan yillari uchun va boquvchisini yo'qotganda fuqarolarni moddiy jihatdan ta'minlash uchun pul summalarining kafolatlangan har oylik to'lovi"¹² sifatida tavsiflangan. B.Umurzakovning ilmiy ishlarida "pensiya – sug'urtalangan shaxsga uning yo'qotilgan muayyan daromad miqdorini belgilab turuvchi darajasining kompensatsiyasi"¹³ ekanligi qayd etilgan.

O'zbek tilining izohli lug'atida "pensiya (lot. pensio – to'lov) – qarigan, mehnat qobiliyatini yo'qotgan, uzoq yil xizmat qilgan, boquvchisidan judo bo'lgan kishilarni moddiy jihatdan ta'minlash maqsadida ularga davlat tomonidan doimiy berib boriladigan pul"¹⁴ mazmunida ifodalangan.

"Davlat pensiylarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomga ko'ra, "pensiya – uni olish huquqi Qonunda belgilangan shartlarga va me'yorlarga muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya yoshiga to'lish, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to'lovi"¹⁵dir.

Pensiylarning mazmun-mohiyati bo'yicha yuqorida keltirilgan ta'riflardan bir necha muhim xulosalar chiqarish mumkin: birinchidan, pensiylar pul, pulli to'lovlar, kafolatlangan har oylik to'lov deyilganda aholining ma'lum bir toifasiga nogironlik, boquvchisini yo'qotish, qarilikda va shunga o'xshash boshqa holatlarda ularning hayotiy faoliyatini ta'minlash uchun beriladigan muntazam pul to'lovlari tushuniladi; ikkinchidan, pensiylarning fuqarolarga muayyan holatlarda taqdim etilishi, ya'ni faqatgina qariganda, nogironlik yuz berganida, boquvchisidan maxrum

¹⁰ Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. – USA: Auerbach Publications, 2008. – P. 2-5.

¹¹ Ройк Д. Социальное страхование в меняющемся мире: каким будет выбор России? – СПб.: Питер, 2014. – С. 46.

¹² Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – T.: Noshir, 2011. 676-b.


¹³ Umurzakov B.X. Pensiya badali soliq to'lovlaridan nima bilan farqlanadi? – T.: "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 1-son, 2011. 5-b.

¹⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati - P.pdf.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 592-son 13.10.2022 yildagi "Davlat pensiylarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori.

bo'lganida va xizmat muddatini o'taganligi munosabati bilan to'lanishi; uchinchidan, pensiyalar fuqarolarga yo'qotilgan daromad (ish haqi) kompensatsiyasi sifatida ularning mehnatga layoqatli davridagi jamlangan pensiya sug'urtasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi va oyma-oy (davriy) hamda umrbod to'lab borilishi. Shu munosabat bilan fuqarolarga qariganda, nogironligi bo'lganda (yuz berganda) va boquvchisidan ayrilganda muayyan shartlar va me'yorlar asosida beriladigan har oylik to'lovlarga pensiya deyiladi. Ushbu faoliyat pensiya ta'minotini, pensiya ta'minotini amalga oshirish bilan o'zaro bog'liq ish-faoliyat, shakl va tartib-qoidalari majmui esa pensiya ta'minoti tizimini ifodalaydi.

Buguni kunda O'zbekistonda davlat pensiya tizimi taqsimlanuvchi va jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotidan iborat (1-rasm).




1-rasm. O'zbekistonda davlat pensiya ta'minoti tizimi tarkibi¹⁶

Taqsimlanuvchi pensiya ta'minoti, asosan, demografik omillarga bevosita bog'liq bo'lsa, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti rasmiy bandlik, inflyatsiya va mablag'larni investitsiyalashga bog'liqdir. O'zbekistonda pensiya ta'minotining har ikkala tizimi ham pensionerlarning turmush farovonligini yanada oshirish va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirishda unga ta'sir etuvchi omillar muhim amaliy ahamiyatga ega. Pensiya ta'minoti tizimiga ta'sir etuvchi omillarni ijtimoiy-iqtisodiy va mehnat omillari, demografik omillar va huquqiy-siyosiy omillar tarzida tasniflash va tavsiflash hamda ushbu omillarni hisobga olish, ta'sir doirasini aniqlash, tahlil qilish, shu asosda muhim qarorlar

¹⁶ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

qabul qilish pensiya tizimini rivojlantirish, uning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi (2-rasm).



2-rasm. Davlat pensiya ta'minoti tizimiga ta'sir etuvchi omillar¹⁷

Jahon amaliyotida pensiya ta'minoti tizimi uch pog'onali bo'lib, quyidagilardan iborat: "taqsimlanuvchi; jamg'arib boriladigan; aralash (gibrid)"¹⁸.

1. Taqsimlanuvchi pensiya ta'minoti tizimi. Bunda pensionerlarga to'lovlar ish bilan band bo'lgan soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadi va shu boisdan mazkur tizim "birdamlik" tizimi, deb ataladi. Ish haqining bir qismi ijtimoiy to'lovlarga, jumladan, pensiyalarga sarflanadi. Bunda ijtimoiy soliq Pensiya fondida jamlanadi va fuqarolarga pensiya yoshiga yetganlarida pensiya to'lovlari ushbu fondan amalga oshiriladi. Bunda pensiya miqdori pensiyaga chiqqan fuqaroning mehnat stajiga va

¹⁷ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁸ <https://journal.sovcombank.ru/zhizn/pensionnie-sistemi-raznih-stran-kak-ustroeni-i-chem-otlichayutsya> Пенсионные системы: как устроены в разных странах.

oylik daromadiga bog'liq bo'ladi. Ushbu tizimning afzalligi birdamlik, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va barqarorlikdan iborat.

2. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi. Bunda har bir ishchi mehnat faoliyati davomida o'z pensiyasi uchun mablag'larni mustaqil ravishda jamlaydi. Bunda fuqarolar pensiya mablag'larini ko'paytirish uchun investitsiyalash vositalarini va moliyaviy institutlarni o'zlari tanlaydi va qaror qabul qiladi. Bu tizimning afzalligi kelajakdagi pensiya uchun jamg'arish va investitsiyalarni mustaqil ravishda boshqarish qobiliyati, aholining ijtimoiy mas'uliyati va moliyaviy savodxonligining oshirilishi, kelajakdagi pensiya miqdorini oshirish imkoniyatlari.

3. Aralash (gibrid) pensiya ta'minoti tizimi. Mazkur tizimda qarilik uchun yo'naltirilgan jamg'armalarga davlat ham, fuqarolar ham mas'ul hisoblanadi. To'lovlarning bir qismi joriy pensiya to'lovlarini moliyalashtirishga, bir qismi esa har bir soliq to'lovchining shaxsiy jamg'armalariga yo'naltiriladi. Asosiy afzalliklari barqarorlik, individual yondashuv va samaradorlikdir.


Pensiya tizimining moliyaviy ta'minoti bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalardan O'zbekiston amaliyotida foydalanish, eng avvalo, milliy pensiya tizimining joriy holatini tahlil qilish va bu bo'yicha asosiy tendensiyalarni aniqlash va tegishli xulosalarni shakllantirish zarurligini taqozo etadi.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston Respublikasida davlat pensiya ta'minoti tizimining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida davlat pensiya ta'minoti tizimining amaldagi holati va unga oid tendensiyalar, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromad va xarajat yo'nalishlari, uning tarkibi, pensiya tizimining samaradorligi tadqiq qilingan hamda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi tahlil qilingan.

2014–2024-yillar mobaynida barcha omillarning ta'siri ostida tayinlangan o'rtacha oylik pensiya miqdori 3,5 martaga o'sgan bir sharoitda o'rtacha oylik ish haqi 5,3 martaga o'sgan, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining o'sish sur'atlari tayinlangan o'rtacha oylik pensiya miqdorining o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lgan va bu holat pensionerlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish nuqtayi nazaridan salbiy holatni namoyon qiladi (3-rasm). Bunday tendensiya O'zbekiston pensiya tizimida qoplanish koeffitsiyentining ham talab etilgan xalqaro me'yordan sezilarli darajada kam ekanligini ko'rsatadi. Pensiya tizimida qoplanish koeffitsiyenti XMTning “Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yorlari to'g'risida”gi “102-sonli Konvensiyaga muvofiq, 40 foizdan kam bo'lmasligi tavsiya etilgan va bunda fuqaroning sug'urta staji 30 yilni tashkil qilishi kerak”¹⁹. “Qoplanish koeffitsiyenti davlat pensiya ta'minoti tizimida o'rtacha pensiya miqdorining o'rtacha ish haqiga nisbatini, ya'ni fuqarolarning yo'qotilgan ish haqining kelgusida pensiya bilan qoplanish darajasini ifodalaydi”²⁰.


¹⁹ Конвенция N102 Международной организации труда «О минимальных нормах социального обеспечения». Статья 67. (Заключено в г. Женева 28.06.1952). Приложение к разделу XI периодические выплаты типовому бенефициарию. – С. 21.; Ройк В.Д. Пенсионные системы в странах СНГ: итоги преобразований и пути совершенствования // ЭКО. – 2019. – № 3. – С. 99.

²⁰ Хить Л.В. Комплексная оценка эффективности пенсионной системы как приоритетное направление социально-экономической политики России. // Ж. Теория и практика общественного развития. 2010. №2. – С. 272-273.



3-rasm. O'rtacha oylik ish haqi va tayinlangan o'rtacha pensiya miqdori, (ming so'mda)²¹

2014–2024-yillar davomida o'rtacha oylik ish haqi miqdorining o'sish sur'atlari o'rtacha oylik pensiya miqdorining o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lganligi sababli qoplanish koeffitsiyentining darajasi ham sezilarli darajada pasayib ketgan va 2014-yildan to 2024-yilgacha bo'lgan davrlarning birortasida ham qoplanish koeffitsiyenti xalqaro me'yorga mos bo'lmagan yoki 40 foizlik darajani qayd etmagan (4-rasm).



4-rasm. Pensiya tizimida qoplanish koeffitsiyenti²²

Chunonchi, qoplanish koeffitsiyenti 2014-yildagi 39,72 foizdan 2024-yilga kelib, 26,69 foizgacha kamayib, tahlil qilingan davr oralig'ida 13,03 foizli bandga pasaygan. Bu esa O'zbekistonda pensionerlarni ijtimoiy va moddiy jihatdan himoyasini yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi va pensiya tizimining samaradorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan salbiy holatdir. "Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida qoplanish koeffitsiyenti 60 foiz atrofida tebranadi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlarda bu ko'rsatkich o'rtacha 60-65 foizni tashkil qiladi"²³. Rivojlangan mamlakatlarda pensiya tizimida qoplanish koeffitsiyenti 55 foizdan 75 foizgachani tashkil qiladi. Masalan, "2023-yilda qoplanish koeffitsiyenti Niderlandiyada – 74,7 %, Daniyada – 73,1 %,

²¹ Rasm O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining statistik ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.

²² Rasm O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining statistik ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.


²³ Pensions at a glance 2023 © OECD 2023. OECD and G20 indicators. Publishing, Paris. – P. 151-152.

Shvetsiyada – 62,3 %, Finlyandiyada – 58,4 %, Kanadada – 57 %, Yangi Zellandiyada – 54,9 %ni tashkil qilgan”²⁴. Qoplanish koeffitsiyentining bunday yuqori darajasi ushbu mamlakatlarda amal qilayotgan pensiya modellari bilan xususiyatlanadi. Chunonchi, aksariyat rivojlangan mamlakatlar ko‘p bosqichli pensiya ta‘minoti tizimiga ega bo‘lib, bular majburiy davlat pensiyalari, ixtiyoriy individual pensiyalar va majburiy kasbiy pensiyalardan iboratdir.

Tadqiqot natijalari o‘rtacha oylik pensiya miqdori va ish haqi o‘rtasida korrelyatsion bog‘liqlik mavjud ekanligini ko‘rsatdi. Mazkur xulosani asoslash maqsadida quyidagi 5-rasm ma‘lumotlari va (1) formuladan foydalanildi:

$$(\bar{y}_x - \bar{y}) = \rho_{yx} (x - \bar{x}), r_T = \frac{\sum n_{xy}xy - n\bar{x}\bar{y}}{n\sigma_x\sigma_y}, \rho_{yx} = r_T \frac{\sigma_y}{\sigma_x}, \rho_{xy} = r_T \frac{\sigma_x}{\sigma_y}, R^2 = r_T^2 \quad (1)^{25}$$

Bu yerda shuni alohida ta‘kidlash kerakki, yuqoridagi formula yordamida o‘rganilayotgan ikki ko‘rsatkichning bir-biriga nisbatan o‘zgarishida to‘g‘ri proporsionallik darajasi o‘rganiladi.



5-rasm. Tayinlangan o‘rtacha oylik pensiya miqdori va o‘rtacha oylik ish haqi ko‘rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog‘lanish darajasi²⁶

2014–2024-yillar oralig‘idagi o‘rtacha oylik pensiya miqdori (Y) va o‘rtacha oylik ish haqi (X) ko‘rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog‘lanish darajasini aniqlaganimizda determinatsiya koeffitsiyenti uchun $R^2 = 0,9535$ qiymatga teng ekanligini ko‘ramiz. Bunday holat o‘rtacha oylik ish haqining ortish koeffitsiyenti respublikamizdagi tayinlangan o‘rtacha oylik pensiya miqdori koeffitsiyentiga nisbatan tezroq o‘sayotganligini ko‘rsatadi. Xulosa shundan iboratki, o‘rtacha oylik pensiya miqdorini oshirish uchun asosiy omillardan biri sifatida o‘rtacha oylik ish haqini oshirishga asosiy e‘tibor qaratilishi kerak. Chunki, fuqarolarga tayinlanadigan pensiya miqdoriga ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri oylik ish haqi hisoblendi va ish haqi miqdorining yuqori bo‘lishi pensiya miqdorining ham yuqori bo‘lishiga olib keladi. Bir vaqtning o‘zida inflyatsiya darajasining o‘sish sur‘atlarini hisobga olgan holda pensiyalarni indeksatsiya qilib borish maqsadga muvofiqdir.

²⁴ OECD Pensions at a Glance 2023. URL: https://www.oecd.org/en/publications/2023/12/pensions-at-a-glance-2023_4757bf20.html.

²⁵ Xashimov A.R., Babadjanov Sh.Sh., Xujaniyozova G.S. Iqtisodchilar uchun matematika. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2019. 598-607-b.

²⁶ Iqtisodiy-matematik tahlil natijalari asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo mamlakatlarning aksariyati "fuqarolarning pensiyalarini inflyatsiyadan to'liq himoya qiladi, ya'ni pensiyalarni inflyatsiya darajasidan yuqori miqdorda oshirib boradi"²⁷.

Shu munosabat bilan, tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari miqdorini o'n besh foizga oshirish asosida pensionerlarning turmush darajasini yanada yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar ko'lamini kengaytirish hamda ijtimoiy muhofazasini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa pensionerlarning real daromadlarini oshirishga xizmat qilishi bilan bir vaqtda pensiya miqdorining yil davomida tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxлари (tariflari) indeksi (inflyatsiya) darajasining o'sish sur'atlarini hisobga olgan holda indeksatsiya qilinishiga imkon beradi. Pirovardida, O'zbekiston pensiya tizimida qoplanish koeffitsiyentining ham talab etilgan xalqaro me'yorga yaqinlashtirishga imkon yaratadi.

Pensiya to'lovlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda moliyalashtirish byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligiga, daromadlari va xarajatlari miqdoriga bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari ijtimoiy soliqlardan tushumlar, boshqa daromadlar hamda Davlat byudjetidan transfertlar hisobiga shakllantirilmoqda. Pensiya jamg'armasining asosiy daromad manbai ijtimoiy soliq hisoblanadi. Ijtimoiy soliq stavkasi soliq solinadigan bazaga nisbatan belgilangan bo'lib, byudjet tashkilotlari uchun 25 foizni (byudjet tashkilotlari va davlat korxonalari, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq bo'lgan yuridik shaxslar; qaysi yuridik shaxs ustav fondining 50 foizi va undan ko'proq qismi davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq bo'lgan yuridik shaxsga tegishli bo'lsa, o'sha yuridik shaxslar hamda ularning tarkibiy tuzilmalar) tashkil qiladi

2019-yilga qadar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining o'z daromadlari pensiya to'lovlarini moliyalashtirish uchun yetarli bo'lgan. Biroq, soliq tizimidagi islohotlar natijasida 2019-yildan boshlab, Pensiya jamg'armasining asosiy daromadlaridan biri bo'lmish fuqarolarning mehnatga haq to'lash turidagi daromadlaridan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ushlab qolinadigan sug'urta badallari (8 %) bekor qilindi. Natijada, 2019-yildan Pensiya jamg'armasi byudjetida defitsit yuzaga keldi. 2018–2024-yillar davomida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari 2,6 martaga o'sgan bir vaqtda uning xarajatlari qariyb 3,1 martaga o'sgan. Bu esa tahlil qilingan davr oralig'ida Pensiya jamg'armasining daromadlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Jumladan:

birinchidan, Pensiya jamg'armasi daromadlari tarkibida jiddiy o'zgarishlar kuzatilganligi, ya'ni fuqarolarning mehnatga haq to'lash turidagi daromadlaridan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ushlab qolinadigan sug'urta badallari bekor qilindi;

ikkinchidan, 2019-yil 1-oktyabrdan boshlab, Pensiya jamg'armasi hisobiga to'langan yagona soliq to'lovi summasi mahalliy byudjetlarga o'tkazildi, 2020-yil 1-yanvardan davlat korxonalari, davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq bo'lgan

²⁷ «Взгляд на пенсии в 2023 году: показатели ОЭСР и G20». Pensions at a Glance 2023 | OECD.

yuridik shaxslar hamda ularning tarkibiy tuzilmalari uchun yagona ijtimoiy to'lov stavkasining darajasi 25 foizdan 12 foizga pasaytirildi;

uchinchidan, mazkur yillar davomida pensionerlar soni o'sib, 2018-yilgi 3484,8 ming nafardan 2024-yilga kelib 4,579,9 ming nafarga yetgan (1-jadval).

1-jadval

2018–2024-yillarda Pensiya jamg'armasining daromadlari, xarajatlari va defitsitining o'zgarish tendensiyasi (mlrd.so'mda)²⁸

№	Ko'rsatkichlar	2018y.	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.	2024y.
Jami mablag'lar		27454,2	31 312,5	34 779,1	40 284,5	47 951,2	56 626,7	66 115,0
Davr boshiga qoldiq		3396,2	6 973,5	5 069,8	2 971,3	3 679,1	3 023,6	3 233,8
I.	Daromadlar, jami	24058,0	24 339,0	29 709,3	37 313,2	44 272,1	53 603,1	62 881,2
1.	Soliq tushumlari	23948,8	24 029,1	20 416,1	26 488,4	33 139,5	39 723,0	46 831,2
1.1.	Ijtimoiy soliq	13896,9	20 722,1	19 841,4	25 642,9	32 338,8	38 575,8	45 691,2
1.2.	Sug'urta badallari	5198,2	514,8	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
1.3.	Mahsulot (xizmat) realizatsiyasi hajmidan majburiy ajratmalar	2769,5	898,1	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
1.4.	Boshqa daromadlar	2084,2	1 894,1	574,7	845,5	800,8	1 147,3	1 140,0
1.4.1.	Yagona soliq to'lovi	1493,0	1 166,6	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
1.4.2.	Yuridik shaxs tashkil etmagan holda yakka tartibdagi tadbirkorlarning sug'urta badallari	491,1	599,0	327,8	579,3	520,2	812,7	740,0
1.4.3.	Qonunining 12,14,15-moddalari bo'yicha tushumlar	91,3	122,9	185,9	216,8	257,3	319,5	350,0
1.4.4.	Boshqa tushumlar	8,9	5,6	61,0	49,5	23,3	15,1	0,0
2.	Soliqdan tashqari tushumlar	109,2	310,0	176,2	80,5	40,6	82,6	50
II.	Jami xarajatlar	20480,7	26 242,8	31 807,8	36 605,3	44 927,6	53 589,4	63 137,0
3.1.	Pensiya va pensionerlarga boshqa xarajatlar	20479,1	26 202,8	31 758,6	36 603,8	44 925,6	53 586,7	63 133,0
3.4.	Boshqa xarajatlar	1,5	39,9	49,2	1,6	2,1	2,7	4,0
4.	Davlat byudjetidan transfertlar	0,0	0,0	9 117,0	10 744,2	11 092,0	13 797,5	16 000,0
Davr oxiriga qoldiq		6973,5	5 069,8	2 971,3	3 679,1	3 023,6	3 037,3	2 978,0

Natijada, 2020–2024-yillarda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi byudjetining defitsitini qoplash maqsadida ajratilayotgan Davlat byudjetidan transfertlar miqdori 1,7 martaga o'sgan yoki 2020-yildagi 9117,0 mlrd. so'mdan 2024-yilda 16000 mlrd. so'm miqdorigacha oshgan. Prognozlarga ko'ra, "2030-yilda transfert miqdori 38 trillion so'mga yetishi"²⁹ mumkin. Eng asosiysi masala shundaki, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan, nafaqat, davlat pensiya to'lovlari, balki turli kompensatsiyalar va boshqa to'lovlar

²⁸ Rasm O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining statistik ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.

²⁹ Fuqarolar ko'p mablag' olmayapti! O'zbekistonda pensiya islohoti amalga oshirilishi mumkin. - Xalq so'zi.

(“tashkilotlarning ishlaydigan 16 yoshgacha nogironligi bo‘lgan bolaning ota-onalaridan biriga (vasiyga, homiyga) bir oyda qo‘shimcha dam olish kuni uchun to‘lov, Chernobil halokati oqibatida zarar ko‘rgan fuqarolarga kompensatsiya to‘lovlari, 100 yoshga to‘lgan va undan oshgan fuqarolar pensiyasiga har oylik qo‘shimcha to‘lovlar, uy-joy kommunal xizmatlari to‘lovlari hamda avtobenzin sotib olish xarajatlari uchun har oylik pul kompensatsiya to‘lovlari, 1941–1945-yillardagi urush qatnashchilariga har yili sanatoriylarda sog‘lomlashtirish kursini olish o‘rniga yo‘llanmaning o‘rtacha qiymatiga teng kompensatsiya to‘lovlari, uy-joy-kommunal xizmatlari to‘lovlari bo‘yicha kompensatsiya pul to‘lovlari va boshqa shu kabilar”) ham moliyalashtiriladi. Biroq, bunday turdagi kompensatsiyalarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga va pensiya to‘lovlariga bevosita aloqasi yo‘q. Qolaversa ushbu kompensatsiya xarajatlari Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi hamda davlat pensiyalarini o‘z vaqtida va to‘liq hajmda moliyalashtirilishiga to‘sqinlik qiladi. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlarining shakllantirilishida esa faqat ish bilan band aholi ishtirok etadi. Shu munosabat bilan fuqarolarga yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha pensiya xarajatlarini byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan, kompensatsiya va boshqa to‘lovlar uchun xarajatlarni respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu, nafaqat, byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligini yaxshilaydi, balki davlat ijtimoiy sug‘urtasi tizimining barqarorligini ta‘minlash va uni yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda Pensiya jamg‘armasining daromadlari va xarajatlarining o‘rta va uzoq muddatli prognozlarini ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Dissertatsiyaning **“Davlat pensiya ta‘minoti tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida milliy pensiya ta‘minoti tizimidagi o‘ziga xos muammolar aniqlangan va ularni bartaraf etish yo‘llari ilmiy asoslangan hamda va davlat pensiya ta‘minoti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan.


Davlat pensiya ta‘minoti tizimini takomillashtirishda pensiya ta‘minoti qamrovi masalasi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, “O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti qamrovi yuqori norasmiy bandlik tufayli atigi 38 foizni tashkil etadi”³⁰, xolos. Bu byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlarini shakllantirishda jami bandlarning 38 foizigina ishtirok etayotganligini va norasmiy bandlikning sezilarli darajada yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Ta‘kidlash joizki, “Allianz Pension Ranking – 2023” pensiya reytingida eng yuqori o‘rinlarni egallagan Daniya va Niderlandiyada bu ko‘rsatkich 100 foizni tashkil qiladi, ya‘ni pensiya ta‘minoti qamrovi 100 foizga teng.

O‘z navbatida, norasmiy bandlikning yuqoriligi pirovardida pensiya miqdorining ham oz bo‘lishiga olib keladi. Ma‘lumki, pensiya miqdorini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri mehnat staji hisoblanadi. Amaldagi

³⁰ <https://www.gazeta.uz/oz/2024/07/11/pensions/> Pensiya tizimini qanday takomillashtirish kerak? Strategik islohotlar agentligi tahlili. – O‘zbekiston yangiliklari – Gazeta.uz.

qonunchilikka ko‘ra, “yoshga doir pensiya olish huquqiga erkaklar ish stajlari kamida 25 yil bo‘lgan taqdirda va ayollar ish stajlari kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda ega bo‘ladilar”³¹. Eng muhimi, pensiya tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega bo‘lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar kamida 7 yil ish staji mavjud bo‘lgan taqdirda va mavjud mehnat stajiga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2018–2024-yillarda pensionerlar soni 1,6 barobarga oshgan bir paytda to‘liqsiz staj bilan pensiyaga chiqqanlar soni 4,8 barobarga oshgan (6-rasm).



6-rasm. Pensionerlar tarkibida to‘liqsiz staj bilan pensiya oluvchilarning salmog‘i, (foiz hisobida)³²

Natijada, tahlil qilingan davr oralig‘ida pensionerlar tarkibida to‘liqsiz staj bilan pensiya oluvchilarning salmog‘i 2014-yildagi 11,37 foizdan 2024-yilga kelib, 34,84 foizgacha oshgan yoki 23,47 foizli bandga o‘sgan. Bunday tendensiya O‘zbekiston jami aholisining qariyb 60 foizini tashkil etuvchi mehnatga layoqatli aholi qatlamining aksariyati norasmiy sektorda band ekanligini, hududlarda ish o‘rinlari yaratish masalalarining qoniqarsiz holatdaligini, “yashirin iqtisodiyot” darajasining yuqoriligini ko‘rsatadi va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, pensionerlarni moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash nuqtayi nazaridan salbiy omildir. Qolaversa, mehnat stajining yetarli bo‘lmashligi kelajakda pensiya miqdorining ham kam bo‘lishiga olib keladi va bu mamlakatda o‘rtacha oylik pensiya miqdoriga ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa O‘zbekistonning xalqaro pensiya reytingida o‘rin olish va ijobiy natijaga erishishiga to‘sqinlik qiladi. Masalan, “O‘zbekiston Allianz Pension Ranking – 2023 pensiya reytingida oxirgi o‘rinlardan birini (75 mamlakat ichida 71-o‘rin) egalladi. Taqqoslash uchun: Qozog‘iston 34-o‘rinda, Rossiya - 37, Turkiya - 59-o‘rinda”³³. Bizning fikrimizcha, to‘liqsiz staj bilan pensiya oluvchilar sonining shiddat bilan o‘sib

³¹ Ishlovchi pensionerni pensiyaga chiqarish: qachon qonuniy, qachon esa g‘ayriqonuniy | NORMA.UZ.

³² Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi ma’lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan shakllantirilgan.

³³ <https://www.gazeta.uz/oz/2024/07/11/pensions/> Pensiya tizimini qanday takomillashtirish kerak? Strategik islohotlar agentligi tahlili – O‘zbekiston yangiliklari – Gazeta.uz.

borayotganligi O‘zbekiston uchun asosiy xavotirlardan biri bo‘lgan demografik dividenddan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Chunonchi, ishchi kuchining katta qismi yuqori ish haqi izlab, chet elga migratsiya qilmoqda. “Bugun taxminan 2,5 million o‘zbekistonlik xorijda mehnat qilayapti”³⁴. Shuning uchun mehnat shartnomasi asosida chet elda ishlayotganlarni ham ijtimoiy sug‘urta tizimiga jalb qilish va pensiya ta‘minoti qamrovini oshirish, kelajakda ularni ham munosib pensiya bilan ta‘minlash, to‘liqsiz staj bilan pensiya oluvchilar sonini keskin kamaytirishda ular uchun Pensiya jamg‘armasiga ixtiyoriy ravishda ijtimoiy soliq to‘lashlarida imkoniyat yaratish g‘oyat dolzarb amaliy ahamiyat kasb etadi. Fikrimizcha, mehnat shartnomasi asosida chet elda ishlagan O‘zbekiston fuqarolari tomonidan o‘tgan davr uchun ijtimoiy soliqni ixtiyoriy ravishda byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga yiliga bazaviy hisoblash miqdorida (375000 so‘m) to‘lash imkonini berish maqsadga muvofiqdir. Bu, mehnat shartnomasi asosida chet elda ishlagan fuqarolarimizni istiqbolda munosib pensiya bilan ta‘minlash va turmush farovonligini yaxshilashga va Pensiya jamg‘armasining daromadlari barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Davlat pensiya ta‘minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasini ishlab chiqish, bizning fikrimizcha, davlat pensiya ta‘minoti tizimini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Bunda bir qancha omillar hisobga olinishi kerak: fuqarolarga pensiya tayinlash shartlarini, mehnat staji va pensiya olish uchun ijtimoiy sug‘urta badallari miqdorini qayta ko‘rib chiqish; pensiya yoshini umr ko‘rish davomiyligiga moslab belgilash, jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti tizimini rivojlantirish (bunda badallar stavkasi past bo‘lib, oylik ish haqining bor-yo‘g‘i 0,1 foizini tashkil qiladi va cheklovchi qoidalar, ya‘ni fuqarolar o‘z jamg‘arilgan mablag‘larini ixtiyoriy ravishda investitsiyalash, boshqa moliyaviy vositalarga yoki bank omonatlariga yo‘naltirish huquqiga ega emasligi sababli jozibador emas); pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash; pensiya ta‘minoti qamrovi darajasini oshirish; pensiyalarning o‘rtacha oylik miqdorini (qoplanish koeffitsiyentini) xalqaro me‘yorlarga moslashtirish va boshqalar.

Bizning fikrimizcha, davlat pensiya ta‘minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasini ishlab chiqishning zarurligi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

o‘tgan davr mobaynida pensiyaga chiqish yoshini belgilashda demografik o‘zgarishlarning e‘tibordan chetda qolganligi, umr ko‘rish davrining uzayib borishiga mos ravishda belgilangan pensiya yoshini oshirish masalasi;

aholining pensiya ta‘minoti tizimidagi ishtirokining nisbatan past darajada ekanligi, ya‘ni pensiya tizimi qamrovining pastligi;

pensiya miqdori va xodimning mehnat davri davomiyligi o‘rtasidagi bog‘liqlikning kuchsizligi, pensiya tizimida qoplanish koeffitsiyentining xalqaro me‘yorlarga mos emasligi;

pensiya tayinlash mexanizmi va talablarining eskirganligi hamda pensiya tizimi islohotlarining demografik o‘zgarishlardan ortda qolayotganligi, sohada shaffoflikni ta‘minlash va raqamlashtirishning zarurligi;

³⁴ <https://zamin.uz/uz/ozbekiston/141144-ozbek-migranti-u-vataniga-oltin-eksportidan-ham-koproq-foйда-keltiryapti.html> O‘zbek migranti: u vataniga oltin eksportidan ham ko‘proq foyda keltiryapti - Zamin.uz.

pensiyalarni hisoblab chiqarishda hanuzgacha samarasiz imtiyozlarning amal qilayotganligi;

pensiya ta'minoti uchun davlat, ish beruvchilar va ishlovchilarning mas'uliyatini yanada kuchaytirishning zarurligi;

ishlovchilarning pensiya ta'minoti tizimidagi uzoq muddatli va uzluksiz ishtirokini rag'batlantirish mexanizmlarining zaifligi;

pensiya to'lovlari moliyalashtirish manbalarini yanada diversifikatsiyalash hamda Pensiya jamg'armasining moliyaviy mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishning zarurligi;

boshqa omillar.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining pensiya ta'minoti sohasidagi asosiy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni, zamon talablariga moslashtirishni, xalqaro me'yorlarga asosan takomillashtirishni taqozo etadi.

2014–2024-yillar oralig'idagi pensiya yoshidagi aholi soni (M) va iqtisodiyotda bandlar soni (N) ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'lanish darajasini quyidagi 2-jadvaldagi statistik ma'lumotlar asosida aniqlaymiz. Tahlillarga ko'ra, 2014–2024-yillar mobaynida pensiya yoshidagi aholi soni qariyb 1,7 barobarga o'sgan bir paytda iqtisodiyotda bandlar soni 1,03 barobarga oshgan. Bunday tendensiya, birinchidan, pensiya yoshidagi aholining o'sish sur'atlari iqtisodiyotda bandlar sonining o'sish sur'atlaridan yuqoriligini ko'rsatadi va pensiya ta'minoti tizimining moliyaviy barqarorligi va pensiya tizimining qamrovi nuqtayi nazaridan salbiy holatni ifoda etadi, ikkinchidan, iqtisodiyotda bandlar soniga nisbatan pensiya oluvchilar sonining ortib borishi yuqoriligini va shunga muvofiq shakllanadigan Pensiya jamg'armasi daromadlari hisobidan to'lanadigan o'rtacha pensiya miqdorining o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan kichik sur'atlarda o'sishi yuzaga kelayotganligini ko'rsatadi.

Quyidagi 7-rasmda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning pensiya tizimini rivojlantirish konsepsiyasi keltirilgan. Pensiya tizimini rivojlantirish konsepsiya bo'yicha taraqqiy etgan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqib, O'zbekistonda XMTning "Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yorlari to'g'risida"gi 102-sonli Konvensiyasiga muvofiqashtirishni nazarda tutuvchi Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasini ishlab chiqish zarur. Mazkur konsepsiya: pensiya ta'minoti tizimini ijtimoiy adolatini kuchaytirish hamda pensiya ta'minoti tizimining samaradorligiga erishishga; mehnat stajiga mutanosib ravishda pensiya miqdorlarini oshirish hamda pensiya ta'minoti tizimining muvozanatlashgan holdagi moliyaviy barqarorligini yaratishga; o'rtacha pensiya miqdorining o'rtacha ish haqiga nisbatini, ya'ni qoplanishsh koeffitsiyentini 40 foizdan kam bo'lmagan darajada saqlash va uni oshirib borishga; fuqarolar pensiya ta'minoti tizimida rag'batlantiruvchi mexanizmlarni takomillashtirish orqali aholini pensiya sug'urtasi tizimi bilan qamrab olish ko'lamini yanada kengaytirish va pensiya xizmatlari sifatini oshirishga; jamg'arib boriladigan pensiya tizimini modernizatsiya qilishga imkon

beradi. Pirovardida, pensionerlarning moddiy ahvoli va ijtimoiy himoyasi yaxshilanib, turmush farovonligini oshirishga erishiladi.



7-rasm. Taraqqiy etgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda pensiya tizimini rivojlantirish konsepsiyasi³⁵

Pensiya tizimini rivojlantirishda davlat pensiyalarini tayinlash tartibini takomillashtirish ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. 2021-yilga qadar bo'lgan davrda fuqarolarga pensiya tayinlashda ish stajini, ish haqini tasdiqlovchi va boshqa tegishli ma'lumotlarni aniqlash maqsadida “30 turdagi hujjatlar talab

³⁵ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

etilar edi va ushbu hujjatlarni taqdim etishga mas'ul bo'lgan 14 dan ortiq vazirlik va tashkilotlarda to'liq ma'lumotlar bazasi mavjud emas edi"³⁶. Shuning uchun fuqarolarga davlat pensiyalarini tayinlash uchun zarur bo'lgan elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirish, mazkur jarayonni soddalashtirish, fuqarolarning sarsongarchiliklarini bartaraf etish maqsadida raqamlashtirish yo'lida izchil huquqiy islohotlar amalga oshirildi va davlat pensiyalarini tayinlash tartibi soddalashtirildi. "Yagona mehnat milliy tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksi joriy etildi. Natijada, fuqaro pensiya tayinlashni so'rab, yashash joyidagi Pensiya jamg'armasi bo'limiga tegishli shakl va mazmundagi arizani to'ldirgan holda, shuningdek, Davlat xizmatlari markazi orqali yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan ro'yxatdan o'tib, maxsus shakl bo'yicha so'rovnoma to'ldirgan holda murojaat qilish huquqiga ega. Bizning fikrimizcha, pensiyalarni tayinlash yuzasidan ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini yanada yaxshilash hamda ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish maqsadida fuqarolarga yoshga doir pensiyalarni pensiya yoshiga to'lishi munosabati bilan alohida murojaat talab etmagan holda proaktiv shaklda Pensiya jamg'armasining axborot tizimi orqali tegishli ma'lumotlariga asosan tayinlanishi maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

O'zbekistonda davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosalar shakllantiradi:

1. Pensiyalar pul, pulli to'lovlar, kafolatlangan har oylik to'lov ma'nosini ifoda etib, aholining ma'lum bir toifasiga nogironlik, boquvchisini yo'qotish, qarilikda va shunga o'xshash boshqa holatlarda ularning hayotiy faoliyatini ta'minlash uchun beriladigan muntazam pul to'lovlarini anglatadi hamda pensiyalar fuqarolarga muayyan holatlarda taqdim etiladi, shuningdek, fuqarolarga yo'qotilgan daromad (ish haqi) kompensatsiyasi sifatida ularning mehnatga layoqatli davridagi jamlangan pensiya sug'urtasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi va ularga umrbod to'lab boriladi.

2. O'zbekistonda davlat pensiya tizimi taqsimlanuvchi va jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotidan iborat bo'lib, taqsimlanuvchi pensiya ta'minoti demografik omillarga bevosita bog'liq bo'lsa, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti rasmiy bandlik, inflyatsiya va mablag'larni investitsiyalashga bog'liqdir. Ikkala tizim ham pensionerlarning turmush farovonligini yanada oshirish va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgandir. Ammo, jamg'arib boriladigan pensiya tizimida badallar stavkasi past bo'lib, oylik ish haqining bor-yo'g'i 0,1 foizini tashkil qiladi va cheklovchi qoidalarning mavjudligi, xususan, fuqarolar o'z jamg'arilgan mablag'larini ixtiyoriy ravishda investitsiyalash, boshqa moliyaviy vositalarga yoki bank omonatlariga yo'naltirish huquqiga ega emasligi sababli jozibador emas. Jahon amaliyotida pensiya ta'minoti uch pog'onali bo'lib, taqsimlanuvchi, jamg'arib boriladigan va aralash

³⁶ https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/pensiya_tayinlash_jaraeni_soddalashtiriladi Pensiya tayinlash jarayoni soddalashtiriladi.

(gibrid) tizimdan iborat va bu pensionerlarning real daromadlarini oshirish va turmush farovonligini yanada yaxshilash imkoniyatini yaratadi.

3. 2014–2024-yillarda tayinlangan oʻrtacha oylik pensiya miqdori 3,5 martaga oʻsgan bir sharoitda oʻrtacha oylik ish haqi 5,3 martaga oʻsgan va bunday holat oʻrtacha oylik ish haqining oʻsish surʼatlari tayinlangan oʻrtacha oylik pensiya miqdorining oʻsish surʼatlaridan yuqori va pensiya tizimida qoplanish koeffitsiyentining ham talab etilgan xalqaro meʼyordan sezilarli darajada kam ekanligini koʻrsatadi hamda pensionerlarni moddiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish nuqtayi nazaridan salbiy holatni namoyon qiladi.

4. Oʻrtacha oylik pensiya miqdorini oshirish uchun asosiy omillardan biri sifatida oʻrtacha oylik ish haqini oshirishga asosiy eʼtibor qaratilishi kerak. Chunki, fuqarolarga pensiya tayinlashda va uning miqdorini belgilashda asosiy koʻrsatkichlardan biri sifatida oylik ish haqi hisobga olinadi va ish haqi miqdorining yuqori boʻlishi tayinlanadigan pensiya miqdorining ham yuqori boʻlishiga olib keladi. Bir vaqtning oʻzida inflyatsiya darajasining oʻsish surʼatlarini hisobga olgan holda pensiyalarni indeksatsiya qilib borish maqsadga muvofiqdir. IHTTga aʼzo mamlakatlarning aksariyati fuqarolarning pensiyalarini inflyatsiyadan toʻliq himoya qiladi, yaʼni pensiyalarni inflyatsiya darajasidan yuqori miqdorda oshirib boradi.

5. 2014–2024-yillar davomida pensionerlar tarkibida toʻliqsiz staj bilan pensiya oluvchilarning salmogʻi 2014-yildagi 11,37 foizdan 2024-yilga kelib, 34,84 foizgacha oshgan va yoki 23,47 foizli bandga oʻsgan. Bunday tendensiya Oʻzbekiston jami aholisining qariyb 60 foizini tashkil etuvchi mehnatga layoqatli aholi qatlamining aksariyati norasmiy sektorda band ekanligini, hududlarda ish oʻrinlari yaratish masalalarining qoniqarsiz holatdaligini, “yashirin iqtisodiyot” darajasining yuqoriligini koʻrsatadi va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, pensionerlarning moddiy va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash, pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini taʼminlash nuqtayi nazaridan salbiy omildir. Qolaversa, mehnat stajining yetarli boʻlmasligi kelajakda pensiya miqdorining ham kam boʻlishiga olib keladi va bu mamlakatda oʻrtacha oylik pensiya miqdoriga ham taʼsir koʻrsatadi. Bu esa Oʻzbekistonning xalqaro pensiya reytingida oʻrin olish va ijobiy natijaga erishishiga toʻsqinlik qiladi.

6. Tadqiqot natijalari milliy pensiya taʼminoti tizimida quyidagi asosiy muammolar mavjudligini koʻrsatdi: toʻliqsiz staj bilan pensiya oluvchilar sonining sezilarli darajada oʻsib borayotganligi; oʻrtacha oylik pensiya miqdorining xalqaro meʼyorlarga mos emasligi va bu pensionerlarning turmush darajasiga jiddiy taʼsir koʻrsatishi; aholining umr koʻrish davrining uzayib borishiga mos ravishda hanuzgacha belgilangan pensiya yoshining oʻzgarishsiz qolayotganligi; norasmiy bandlikning yuqoriligi va bu pensiya tizimining qamroviga hamda Pensiya jamgʻarmasining moliyaviy barqarorligiga salbiy taʼsir etayotganligi va h.k.

7. Bizga maʼlumki, xalqaro amaliyotda risk darajasi 15 foizgacha boʻlganda jarayonning rivojlanishida xavotirga oʻrin yoʻq. Ammo, risk darajasi 15 foizdan ortsa, bu jarayonni toʻgʻri yoʻlga solish uchun zarur tegishli choralarni koʻrish taqozo etiladi. Pensiya yoshidagi aholi sonining iqtisodiyotda bandlar soniga

nisbatan o'sishida risk darajasi 2023-yildan boshlab 16 foiz va 2024-yilda 22 foizdan ortib ketayapti, ya'ni pensiya yoshidagi aholi sonining iqtisodiyotda bandlar soniga nisbatan o'sishida proporsiya buzilayapdi. Bu iqtisodiyotda bandlar soniga nisbatan pensiya oluvchilar sonining ortib borishi yuqoriligini va shunga muvofiq o'rtacha pensiya miqdorining o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan kichik sur'atlarda o'sib borayotganligini ko'rsatadi. Shuning uchun davlat pensiya ta'minoti tizimining moliyaviy barqarorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida ish o'rinlari yaratish va aholini rasmiy ish bilan bandligini ta'minlash orqali ijtimoiy sug'urta tizimiga qamrab olish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Bir vaqtning o'zida umr davomiyligiga mos ravishda belgilangan pensiya yoshining uzaytirilishi pensiya tizimining moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va buni taraqqiy etgan mamlakatlarning tajribalari ham tasdiqlaydi.

8. Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasini ishlab chiqish, bizning fikrimizcha, davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Bunda bir qancha omillar hisobga olinishi kerak: fuqarolarga pensiya tayinlash shartlarini, mehnat staji va pensiya olish uchun ijtimoiy sug'urta badallari miqdorini qayta ko'rib chiqish; pensiya yoshini umr ko'rish davomiyligiga moslab belgilash, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish; pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash; pensiya ta'minoti qamrovi darajasini oshirish; pensiyalarning o'rtacha oylik miqdorini (qoplanish koeffitsiyentini) xalqaro me'yorlarga moslashtirish va boshqalar.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.I.17.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ

ТУРСУНОВ ЗОХИДХУДЖА АРИФОВИЧ

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕНСИОННОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

08.00.07 – «Финансы, денежное обращение и кредит»

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по экономическим наукам

город Ташкент – 2025 год

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером B2024.2.PhD/Iqt4134 в Высшей аттестационной комиссии.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Научного совета (www.tsue.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Мухамедов Фарход Турсунбаевич**
доктор экономических наук, профессор

Официальные опоненты: **Хайдаров Низомиддин Хамраевич**
доктор экономических наук, профессор

Турсунов Жахонгир Пўлатович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: **Ташкентский филиал Российского экономического университета им. Г.В. Плеханова**

Защита диссертации состоится в ____ часов «____» _____ 2025 года на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней № DSc.03/30.12.2019.I.17.01 при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100000, г. Ташкент, проспект Амира Темура, 60А. Тел.: (99871) 234-53-34, факс: (99871) 234-46-26, e-mail: ilmikengash@tsue.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирована за номером ____). Адрес: 100000, г. Ташкент, проспект Амира Темура, 60А. Тел.: (99871) 234-53-34, факс: (99871) 234-46-26, e-mail: kutubxona@tsue.uz.

Автореферат диссертации разослан «____» _____ 2025 года.

(протокол реестра № ____ от ____ «____» _____ 2025 года).

Т.З. Тешабоев

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

Ж.Х. Атаниязов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

И.Н. Кузиев

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Развитие системы пенсионного обеспечения и совершенствование механизмов обеспечения пенсией граждан пожилого возраста, утративших кормильца, а также людей с инвалидностью является одним из приоритетных направлений социально-экономической политики как развивающихся, так и развитых стран мира. В докладе Организации Объединённых Наций (ООН) под названием «Перспективы мировой демографии» отмечается, что «доля населения мира в возрасте 65 лет и старше увеличится с 10 % в 2022 году до 16 % к 2050 году. К 2050 году число людей в возрасте 65 лет и старше во всём мире будет в два раза больше, чем число детей в возрасте до 5 лет, и почти сравняется с числом детей в возрасте до 12 лет»³⁷. Это означает, что численность людей в возрасте 65 лет и старше, то есть пенсионеров, растёт быстрее по сравнению с другими возрастными группами. Подобная тенденция, связанная с увеличением продолжительности жизни, подчёркивает актуальность финансовых проблем, возникающих в связи с государственным пенсионным обеспечением. В связи с этим большинство стран мира уделяют особое внимание развитию системы социального страхования и частного пенсионного обеспечения, внедрению различных пенсионных программ, созданию многоуровневой пенсионной системы, а также совершенствованию накопительных механизмов пенсионного обеспечения.

Согласно результатам доклада Всемирного банка под названием «Предупреждение о глобальном кризисе старения», опубликованного в 1994 году, в связи с увеличением продолжительности жизни населения и прогнозируемым дефицитом в финансировании пенсионных выплат, во многих странах были предприняты научные исследования по следующим направлениям: развитие системы социального страхования, внедрение многоуровневой пенсионной системы, повышение пенсионного возраста, материальное стимулирование выхода на пенсию в более поздние сроки, усиление инвестиционной деятельности пенсионных фондов и обеспечение их финансовой устойчивости, внедрение различных пенсионных программ, а также реформирование существующих пенсионных моделей. Тем не менее, остаются серьёзные проблемы, такие как низкий уровень охвата населения пенсионным обеспечением и растущая зависимость финансирования пенсионных выплат от государственного бюджета. В Глобальном докладе о социальной защите в мире на 2024–2026 годы, подготовленном Международной организацией труда (МОТ – International Labour Organization), подчёркивается, что «пенсии по возрасту являются самой распространённой формой социальной защиты в мире. В 2023 году 79,6 % лиц пенсионного возраста

³⁷ World Population Prospects 2022. Summary of Results. Department of Economic and Social Affairs Population Division. United Nations New York, 2022. Старение | Организация Объединённых Наций

во всём мире были обеспечены пенсией по возрасту, однако более 165 миллионов человек, достигших установленного законом пенсионного возраста, не получали таких пенсий»³⁸. Это, в свою очередь, требует проведения глубоких научных исследований, направленных на расширение охвата пенсионным обеспечением на глобальном уровне, создание эффективных механизмов финансирования пенсионных выплат и совершенствование государственной системы пенсионного обеспечения граждан.

В Республике Узбекистан особое внимание уделяется разработке концепции реформирования государственной системы пенсионного обеспечения, расширению охвата пенсионной системой за счёт сокращения неформальной занятости и увеличения уровня формальной занятости, развитию многоуровневой системы пенсионного обеспечения, совершенствованию порядка расчёта и назначения пенсий, пересмотру пенсионного возраста с учётом продолжительности жизни, а также обеспечению финансовой устойчивости пенсионной системы. В этом направлении определены приоритетные задачи по теме: «Анализ существующих проблем в действующей системе государственного пенсионного обеспечения и подготовка предложений, направленных на обеспечение устойчивости пенсионной системы и укрепление социальной справедливости на основе передового зарубежного опыта.»³⁹ В то же время тот факт, что до сих пор не достигнуты достойные размеры пенсий, а также наличие проблем, связанных с назначением пенсий гражданам, включая тех, кто работает за рубежом, и с финансированием пенсионных выплат, свидетельствует о необходимости дальнейшего совершенствования государственной пенсионной системы.

